

KASB-HUNAR TANLASHDA PSIXOLOGNING O'RNI HAMDA KASB PSIXOLOGIYASINING AHAMIYATI

Asadova Malika Mirmaxmudovna
*Toshkent shahar Sergeli tumani 7-sonli umumta'lim maktabi kasb-hunarga
yo 'naltiruvchi psixolog*

Annotatsiya. Maqolada kasb ta'limi va kadrlar tayyorlashda kasbiy psixologiyaning o'rni, ahamiyati, vazifalari tahlil qilingan, ta'lim tizimidaolib borilayotgan islohotlar jarayonida psixologiyaning kasb tanlashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kasb, islohotlar, psixologiya, kadrlar tayyorlash, kasbiy psixologiya, ta'lim jarayonlari va kasb psixologiyasi.

KIRISH

Ma'naviy komil insonlar ta'limtarbiya olish hamda bu ta'lim va tarbiyani yanada boyitishlari, amaliyatga tatbiq eta olishlari bilan ajralib turadilar. Ta'lim tarbiya insonda ma'lum bir kasbhunarga qiziqish, shu kasb orqali o'z hayotini tuzish, kelajagi uchun zarur bo'lgan manbalarni vujudga keltirishni shakllantirib boradi. Insoniyat paydo bo'libdiki, u har doim o'zini boqish, ehtiyojlarini va manfaatlarini qondirishga harakat qilgan va hozirda ham shu yo'ldan bormoqda. Inson o'z ehtiyojlarini eng avvalo, oziqovqat, boshpana, kiyimkechaklarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishdan boshlagan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Insoniyat hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarni qondirish davomida yangi kasblar ham paydo bo'lib bormoqda. Dunyoda 60 ming (qiylash uchun Rossiyada 20 ming), O'zbekistonda 6 mingdan ziyod kasblar mavjud. Shuni aytish kerakki, kasbhunar va uning egalari azaldan xalqimiz tomonidan e'zozlanib kelingan. O'zbekistonda hozirda bilimdon, o'z kasbini yaxshi egallagan, mustaqil fikrlovchi, o'z kasbiga ijodiy yondashuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, izlanuvchan, intiluvchan mohir ustalar, kasb egalari ko'proq talab qilinmoqda. Shunga asosan, O'zbekiston Respublikasida mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb va katta e'tibor berilayotgan masalalardan biri bo'lib turibdi.

TADQIQOT NATIJALARI

Hozirgi kunda O'zbekistonda yoshlarning kasbhunar egasi bo'lishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Yoshlar bu jamiyatning kelajagi, ularni o'zlari qiziqqan kasblarni egallashi, hayotda o'z o'rinalarini topa olishlari zaruriy jarayon hisoblanadi.

Kasbhunarli bo‘lish inson uchun zarur bir ehtiyoj ekanligini buyuk avlodlarimiz o‘z asarlarida aytib o‘tganlar. Misol uchun, Kaykovus o‘zining «Qobusnama» asarida shunday yozadi: «Bas, agar aqling bo‘lsa hunar o‘rgang‘il, nedinkim hunarsiz aql – boshisiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf’ yetkurmas».

Hozirda o‘sib kelayotgan yoshlар o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o‘zлari uchun qiziqarli bo‘lgan kasbni tanlab olishlari va o‘z hayotlarini mazmunli, yaxshi o‘tkazish uchun intiladilar. Ularga bu kasblarni tanlashlarida kasb psixologiyasining o‘rni va ahamiyati juda katta.

Izlanuvchi yoshlар kasbhunar va uni egallash hayotlari, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar. Shulardan kelib chiqib, kasb – bu inson hayoti uchun zarur bo‘lgan, jamiyatdagi huquqiy me’yorlarga javob beradigan, insonning kelajagini belgilab beradigan o‘ziga xos murakkab jarayon, deb belgilashimiz mumkin. Kasb – bu insonning ma’lum bir ehtiyojlarini va manfaatlarini o‘zi tanlagan kasb faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo‘lishidir. Kasbga xos bo‘lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog‘liq. Kasb psixologiyasi aynan shunday murakkab jarayonlarni o‘rganish orqali yoshlarni o‘zлari qiziqqan kasbga yo‘nalish beruvchi fan hisoblanadi.

Har bir kasbning o‘ziga xos tomonlari, insonlarni o‘ziga jalb qila oladigan qirralari mavjud bo‘lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib, shu kasbni egallashga intiladi. Bu jarayonlarda inson o‘zining ruhiyati bilan shu kasbga xos bo‘lgan psixologik tomonlarni ham shakllantirib boradi.

| 1-bosqich | 2-bosqich | 3-bosqich | 4-bosqich | 5-bosqich | 6-bosqich |
|---|---|--|---|--|--|
| Kasb tanlashga o‘quvchini aqlan va ruhan tayyorlash | Kasbning ta`rifi va tabiatи haqida bilim berish | Qiziqish tushunchasini ochib berish va o‘quvchining qiziqishini aniqlash | Qobiliyat tushunchasini ochib berish va o‘quvchidagi qobiliyatni aniqlash | Kasb tanlovini amalga oshirish va algoritmini ochib berish | Ilovalar asosida kasb tanlovini tajriba tariqasida amalga oshirish |

1-rasm. Kasb tanlash ketma-ketligi

Yoshlarning kasb tanlashlari maktabdan boshlanadi. Bunga ularni tayyorlab borish zarur bo‘ladi. Buni psixolog olim Anvar Jalolov o‘zining «Kasb qanday tanlanadi» kitobida 1rasmdagi kabi ko‘rsatib berdi.

Bu rasmdan ko‘rinib turibdiki, yoshlар kasb tanlashlarida ma’lum bir bosqichlarni bosib o‘tadilar. Xilmaxil va qiziqarli kasblarni tanlashning asosiy maqsadi yaxshi yashash va yaxshi kasbni tanlash hisoblanadi. O‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan kasb

insonni har doim o‘z ustida ishlashga, uni yaxshiroq bilishga undaydi. Anvar Jalolov insonda kasb tanlash jarayonini 2rasmdagidek belgilaydi.

MUHOKAMA

Insonda ma’lum kasb, uni egallahsga havas, mayl, orzu, ishtiyoy, hafslala bo‘lmasa, u hech qanday kasbni egallay olmaydi. Insondagi shu jarayonlar odamning o‘z kelajagini to‘g‘ri anglash, tushunishga olib keladi. Unda istak, xohish paydo bo‘ladi. Bular bolada ma’lum bir maqsadning shakllanishi va bu yo‘lda iroda kuchini sarf qilishga olib keladi. Irodali inson o‘z maqsadi sari intiladi va orzu havaslariga erishadi. Bunda bolada paydo bo‘luvchi havas atrofdagi insonlarni kuzatish orqali, ularga aytilgan maqtov so‘zlarni tinglash va ularning mahoratiga qoyil qolish, bu insonlarning bilimdonligi, qo‘llaridan ko‘plab ishlar kelishini kuzatishi unda shu insonlarga o‘xshashga havasni uyg‘otadi. Unda orzu, armon, tilak, ishtiyoy va hafslala paydo bo‘ladi. Bu jarayonlar bolada uyg‘onayotgan ehtiyojlar va manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lib, uning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishning hissiyotlari, irodalari bilan bog‘liq jarayondir.

Katta bo‘lib borayotgan bolada havas hissi paydo bo‘ladi. Kasbga nisbatan olganda bolani shu kasbga qiziqishi, intilishi, mayli, xohishi, istagi va orzusi bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Bu yo‘lda bola o‘ziga biror kasbni tilab, shu kasbni egallahsga bo‘lgan intilishi sodir bo‘ladi. Agarda bola o‘z tilaklarini hafslala bilan amalga oshirmasa, harakat qilmasa, bu armon va orzu bo‘lib qoladi.

Yoshlarni kasb tanlashlari yo‘lidagi bunday jarayonlarni o‘rgangan psixolog olim inson ning anglash darajasiga ko‘ra kasb tanlashdagi hislariga quyidagicha ta’rif bergan.

Yaxshi kasb tanlash uchun kerak bo‘lgan ji hatlar 3rasmdagi kabi ko‘rsatilishi mumkin.

Kasb va kasbiy psixologik jarayonlar kasb tanlovchidan quyidagilarni talab qiladi:

- kasb tanlashga kerak bo‘lgan idrok, xohishning mavjud bo‘lishi;
- o‘z maqsadi va manfaatini to‘g‘ri anglab olgan bo‘lishi;
- kelajagi haqidagi tasavvurlarning bo‘lishi.

XULOSA

Yuqorida tahlil qilgan fikrlarimiz kasb psixologiyasi bu o‘ziga xos murakkab va doimiy insonkasb o‘rtasidagi bo‘ladigan munosabatlarni o‘rganib boruvchi jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Kasb psixologiyasi insonni o‘z faoliyati davomida kerak bo‘lgan, uni doimo qiziqtirib kelayotgan kasb yo‘nalishlariga yo‘llab turadi. O‘sib kelayotgan yoshlarga maslahatlar berish, ularni kasbga yo‘llash, kasblar haqida bilimlar berish, malakalarini oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, attestatsiyalash, o‘z kasbining ustasi bo‘lib yetishishlarida ularga yordam berish kabi ko‘plab amaliy ishlarni bajarib boradi.

Bulardan tashqari, kasbni insonga qo‘yadigan talablari ham borki, kasb psixologiyasi bu masalalar bilan ham keng shug‘ullanishi zarur bo‘ladi. Bu talablar ob‘ektiv bo‘lib, ularni inson o‘zgartira olmaydi. Kasb qo‘yadigan talablar, birinchidan, kasb bilan bog‘liq jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, jamiyat uchun zarur bo‘lgan talablar bilan bog‘liq bo‘ladi. Lekin bular insonning ishtiroki va ta’siri ostida shakllangandir. Kasblarning shakllanishi va rivojlanishi texnika sohasidagi taraqqiyot va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu esa ko‘plab kasblarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Kasb va kasbiy psixologiya o‘zining tadqiqot sohasi bilan eng muhim amaliy ishni hayotga tatbiq etib boradi. Kasb psixologiyasi inson va kasb o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish orqali insonni kasbga tayyorlaydi, uning imkoniyatlari va qiziqishlarini o‘rganish orqali unga ma’lum bir kasblar haqida bilimlar va o‘ziga qiziq tuyulgan kasbni egallashga yo‘lyo‘riqlar berib boradi. Bu kabi ko‘plab misollar, ya’ni insonni kasbga o‘rgatish, kasbga xos bo‘lgan xulqatvorlarni singdirish insoniyat tarixida ko‘plab uchraydi. O‘sib kelayotgan yosh avlod, uning kasbni egallashi masalalari katta avlodni har doim qiziqtirib kelgan va hozirda ham bu masala dolzarb masalalari qatorida turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: «Istiqlol», 1994. –26b.
2. Jalolov A. Kasb qanday tanlanadi. – T., 2010. –62b.
3. Mahmud Hasaniy. Odob bo‘stoni va axloq guliston. – T.: «Fan», 2014 y. –20b.
4. Холийгитова, Н. (2014). Инновацион технологиилар—таълим ва тарбия жараёнларининг сифат ва самарадорлиги омили сифатида. Современное образование (Узбекистан), (1), 2225.
5. Тураева, Д. Р. (2014). Факторы, определяющие индивидуально-психологические особенности личности педагогов профессионального колледжа. Современные гуманитарные исследования, (3), 118-121
6. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022).
7. Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60.